

TOMATDOSH EKINLAR AGROBIOSENOZIDA UCHRAYDIGAN ZARARKUNANDALAR TASNIFI

Dehqonova Dildoraxon Kamolidin qizi
Andijon Qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti doktoranti

Annatsiya: Ushbu maqolada 2021 yil mobaynida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari berilgan. Tajriba maydonida uchraydigan turli turkumga mansub zararkunandalardan eng ko`p ziyon yetkazgan 10 ortiq zararkunanda aniqlandi. Tajriba maydonida zararkunandalarning uchrash darajasi, ularning rivojlanish bosqichlari, hamda ularning Tomatdosh ekinlar rivojlanishiga ta`siri haqida qisqacha ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Bioekologiya, biosenoz, zararkunanda, zararlanish, rivojlanish, biologik kurash.

Аннотация: В данной статье представлены результаты научных исследований, проведенных в течение 2021 года. выявлено более 10 вредных организмов с наибольшим ущербом относящихся к разным отрядам, среди обнаруженных на опытном участке. кроме того имеется данные о степени пораженности вредителями, стадиях их развития, а также об их влиянии на развитие посевов томата.

Ключевые слова: Биоэкология, биоценоз, вредитель, наносить ущерб, биологическая борьба.

Annatation: This article presents the results of scientific research conducted during 2021. More than 10 of the most harmful pests of related to different category that occur in the experimental field were found out. The experimental field provides a brief overview of the incidence of pests, their stages of development, as well as their impact on the development of Tomato crops.

Keywords: bioecology, biocenosis, pest, damage, development, biological struggle.

Kirish. Xozirda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga ularni zararkunandalardan himoya qilishning eng maqbul usullarini ishlab chiqish shuningdek, kam harajat qilgan holda yuqori foyda olish, eksport sahoiyatini oshirish dalzarb muammo bo`lib qolmoqda. Qishloq xo`jaligi sohasida o`z yechimini topmagan muammolar talaygina, har yili yangidan yangi kurash usullari ishlab chiqilishiga qaramasdan, zararkunanda hashoratlar zarari ortib bormoqda ularni sonini boshqarishda esa samarali usullarga ehtiyoj ortmoqda. O`simliklarni himoya qilishda birgina qo`yilgan xato butun boshli xosilni yo`q bo`lishiga olib kelishi mumkin. Shuni nazarga tutgan holda zararkunanda qishlovdan chiqish muddatlarini to`g`ri belgilab olish eng muhim tadbirlardan hisoblanadi va ularga qarshi kurash choralarini olib borish muddatlari belgilanadi. qanday kurash choralarini olib boorish ham muhimdir.



1.rasm. Baqlajonni kartoshka kolorado qo`ng`izi lichinkalari (*Lepitinotarsa decemlinata*) bilan zararlangan barg . (Rasm. D. Dehqonova)

Shu borada qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishda jahon tajribasiga yuzlanadigan bo`lsak, so`nggi yillarda jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan o`simliklarni himoya qilishga doir ilmiy izlanishlar shunki ko`rsatadiki, zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashishda biologik kurash choralari qo`llanilishi har tomondan foyda beradi. Chunki qishloq xo`jaligida kimyoviy kurash choralari inson va issiqqonli hayvonlar uchun shuningdek atrof-muhit uchun ham jiddiy muammolar keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Kimyoviy moddalar organizmda to`planib keyingi avlodlarga o`tishi olimlar tomonidan alaqachon isbotlangan, bu esa naslning buzilishiga yoki turli irsiy kasalliklarni yuzaga kelishiga sabab bo`lmoqda. So`nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan qishloq xo`jaligi sohasida ilmiy ishlar olib borish jadal rivojlandi. Eng xavfli bo`lgan zararkunandalar sonini boshqarish yuzasidan yangidan yangi usullarni amaliyotga tadbiq etishmoqda. U borada biz olib borayotgan ilmiy tajriba ishlarimiz ham ekologik sof mahsulot yetishtirish va zararkunandalarga qarshi mikrobilologik preparatlarni sinovdan o`tkazishga qaratilgan .

Ilmiy tadqiqotlarimizni dastlabki bosqichini Andijon viloyatining (1-jadval) turli xududlaridagi Tomatdosh ekinlar agrobiosenozida uchraydigan Lepidoptera turkumining asosiy oila vakillarini xisobga olish hamda sistematik tahlil qilishga qaratilgan bo`lsada, bu biosenozda boshqa zararkunandalarga ham qarshi kurash olib borishimiz kerak bo`ladi.

1-jadval.

**Andijon viloyati Tomatdosh ekinlarga eng ko`p ziyon yetkazgan
zararkunandalar
(Andijon viloyati 2021 y)**

№	Zararkunanda lotincha nomi	Zararkunandaning o`zbekcha nomi	Zararlanish darajasi
1.	<i>Tetranychus urticae</i>	O`rgimchakkana	+++
2.	<i>Gryllotalpa adspersa</i>	Buzoqboshi	+
3.	<i>Thrips tabaci</i>	Tamaki trips	++

4.	<i>Muzodes persikak</i>	Shaftoli shirasi	+
5.	Bemisia tabaci	Tamaki oqqanati	+++
6.	<i>Dociostarus maroccanus</i>	Marokash chigirtkasi	+
7.	<i>Adelphorcoris lineolatus</i>	Beda qandalasi	++
8.	<i>Lepitinotarsa decemlinata</i>	Kolorado qo`ng`izi	+++
9.	<i>Agriotis meticusus</i>	Turkiston chertmakchisi	+
10.	<i>Tenebrionidae obscurus</i>	Qora qo`ng`izlar	+

Izoh: Zararlanish darajasi (+++) ko`p, (++) o`rtacha, (+) kam

Biz o`z tadqiqot ishlarimizni 2021-yildan buyon Andijon viloyati Andijon tumanida joylashgan sabzavotchilik, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Andijon stansiyasiga qarashli ekin maydonlarida olib bormoqdamiz. Tajriba tizimi 4 ta variant va 4 ta qaytariqdan iborat.

Xulosa. 2021- yilda ilmiy tadqiqot maydonimizga ekilgan tomatdosh ekinlarda eng ko`p uchragan zararkunanda hashoratlardan o`rgimchakkana, kolorado qo`ng`izi, oqqanot, buzoqboshi, chigirtka kabi zararkunandalar uchradi va jiddiy zarar yetkazdi.

Tajriba maydonimizda ekilgan tomatdosh ekinlardan baqlajon ekiniga kolorado qo`ng`izi va buzoqboshi ko`p zarar yetkazgan. Ayniqsa o`rg`imchakkana tomatdosh ekinlariga kuchli ziyon yetkazdi. Ilmiy ishlarimizni keng ko`lamda o`rganishni bu yilgi rejamizga kiritdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.X. Kimsanboyev , B.A.Sulaymonov, A.R.Anorboyev, A.A.Rustamov Entomologiya va fitopotologiya T-2017
2. X.X.Kimsanboyeva . R.Sh. O`lmasboyeva, Q.X. Xalilov Umumiy va qishloq xo`jaligi entomologiyasi T-2002
3. Sh.T.Xo`jayev, E.A.Xolmurodov Entomologiya, qishloq xo`jalik ekinlarini ximoya qilish va agrotoksikologiya asoslari T-2003
- 4.Sh.T.Xo`jayev O`simliklarni zararkunandalardan uyg`unlashgan ximoya qilishning zamonaviy usul va vositalari T-2015.

5. SH.N.Madixonova. M,K, Mirzitova , Д.К Dehqonova, Особенности томата.
6. A. Jumayeva, G. Abdullayeva , D.Dehqonova, Morphology, biology and measure of cotton bollworm ,2020
- 7.D.Dehqonova, M.Mirzaitova, Pomidor kuyasi (*Tuta absoluta*) bioekologiyasi va amaliy qarshi kurash tadbirlari. 2021
8. R.J. Jacobsan, C.Bass *Tuta absoluta* : Investigating resistance to key insecticides and seeking alternative IPM compatible products , Agricultural and Horticultural Development Board -2015.
9. P. Huermer , O. Karsholt . *Gelechiidae* , *Microlepidoptera of Europe Vol.6* Apollo Books 2010.
10. *Tuta absoluta* (Tomato Leafminer) [www.tuta absoluta.com](http://www.tuta-absoluta.com) 2019.
- 11 EAST FRUIT Биопестициды для борьбы с томатной минирующей молью *Tuta absoluta* 2019
12. <https://www.eppo.int> 2011